



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2024 yil “1” iyul

01-19057 - son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig‘ilishining
12-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«26» iyun 2024-yil

Raislik qiluvchi: Sh.A.Boymurodov

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori v.v.b, professor

Qatnashdilar:

Toshkent tibbiyot akademiyasining
Ilmiy kengashi a‘zolari
(ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI

1. Bitiruvchilarning Yakuniy Davlat Attestatsiyasi natijalari.
Ma‘ruzachi – YADA hay‘ati raisi.
2. Akademiya Ilmiy kengashi faoliyati va Ilmiy kengash qarorlarini bajarilishi holati.
Ma‘ruzachi – Jismoniy va yuridik shahslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi boshlig‘i Achilov Dilshod Dilmurodovich.
3. Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.
Ma‘ruzachi – Komissiya raisi.
4. Dissertatsiya, monografiya va o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.
Ma‘ruzachilar – O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i Azizova Feruza Xusanovna,
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi
boshlig‘i Muminova Ziyoda Abrarovna.
5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan ma‘qullandi

QAROR QILADI:

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo'yicha "Toshkent tibbiyot akademiyasi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari" mavzusi bo'yicha, Malaka oshirish fakulteti dekani Nurillayeva Nargiza Muxtarxanovnaning ma'lumoti qoniqarli deb hisoblansin va axborot uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

1.1. Yangi o'quv yilida akademiyada yakuniy davlat attestatsiyasini yanada sifatli o'tkazilishi maqsadida bakalavriat va magistratura uchun belgilangan test savollari, vaziyatli masalalar qayta ko'rib chiqilishi, tahlil qilinishi va yangilanishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.2. Bakalavriat hamda magistratura bitiruvchi - talabalarning amaliy ko'nikmalarni bajarilishini takomillashtirish va o'zlashtirishlarini avtomatizm darajasiga yetkazish maqsadida kafedralar simulyatsion markaz imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, marketing va malakaviy amaliyot bo'limi boshlig'i Z.Ch. Kurbanova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.3. Akademiyada yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etishda bitiruvchilar tomonidan amaliy ko'nikmalarni bajarilishi audio-video aloqalari orqali namoyish etilishi yanada sifatli tashkillashtirilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Raqamlashtirish ta'lim texnologiyalar bo'limi boshlig'i A.K.Musaxonov.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili.

1.4. Barcha fanlar bo'yicha kafedralarda va simulyatsion markazda bajariladigan amaliy ko'nikmalar yakuniy ro'yxati aniq tartibga keltirilsin, shuningdek yetishmayotgan asbob-uskuna va jihozlar bo'yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Klinik modellashtirish kafedrasini mudiri D.A.Parpibayeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.5. OSKI natijalariga asoslanib, talabalarga anamnez yig'ish va ob'ektiv ko'rikni o'tkazish bo'yicha bilimni kuchaytirilishi, 4-5 kurslarda esa "Kasallik tarixi" himoyasini kiritilishi ta'minlansin. Bu jarayonni bajarilishini kafedralar, dekanat, ilmiy-uslubiy va muammoli kengashlar tomonidan doimiy monitoring olib borilishi ta'kidlab o'tilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.6. YaDAda inson omilini kamaytirish, imtixonda ob'ektivlikni oshirish maqsadida virtual bemor dasturidan foydalanish, amaliy ko'nikmalarni simulyatorlar yordamida olinishi va chek listlardan foydalanishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.7. Bitiruvchilarning malaka talablari ish beruvchi kadr iste'molchilarining talablariga mos ravishda bo'lishini hamda mutaxassisliklar bo'yicha vertikal va gorizontal integratsiya holatining inobatga olgan holda amaliy ko'nikmalar yagona tizimga keltirilganligi ta'kidlab o'tilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Davolash ishlari bo'yicha prorektor M.Sh.Karimov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.8. Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish maqsadida barcha mutaxassislik fanlariga tegishli malaka talablari, malakaviy kompetensiya, amaliy ko'nikmalar hajmi har bir fanlar bloki bo'yicha qayta ko'rib chiqilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Davolash ishlari bo'yicha prorektor M.Sh.Karimov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.9. Yangi o'quv yilida Akademiyada sifatli ta'lim tizimini kuchaytirish va yaratish hamda transformatsiya qilish maqsadida xorijiy nufuzli Oliy ta'lim muassasalari tajribasi o'rganilishi va solishtirilishi va uning natijasida barcha mutaxassisliklar bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etilishi va raqamlashtirilishi, baholash tizimi, bitiruvchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalari malakaviy kompetensiyaga mosligi, professor-o'qituvchilarning pedagogik mahorati, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni olib borilishi bo'yicha kerakli xulosalar olib amaliyotga tatbiq etilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.10. Yangi o'quv yilida magistratura talabalarining dissertatsiyalari hamda olingan ilmiy natijalarining chop etilishi sifatiga alohida e'tibor qaratilishi, shuningdek, mutaxassisliklar bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etishda bitiruvchi magistrning dissertatsiya himoyalari audio-video aloqalari orqali namoyish etilishi yanada sifatli o'tkazilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamov, Raqamlashtirish ta'lim texnologiyalar bo'limi boshlig'i A.K.Musaxonov.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.11. Akademiyaning bakalavriat va magistratura yo'nalishlarida ta'lim olayotgan iqtidorli talabalar orasida diplomdan keyingi ta'lim (magistratura va doktorantura) ni munosib kadrlar bilan boyitish maqsadida seleksiya ishlari olib borilishi kuchaytirilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi bo'yicha "Akademiya Ilmiy kengashi faoliyati va Ilmiy kengash qarorlarini bajarilishi holati" mavzusi bo'yicha Jismoniy va yuridik shahslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i Achilov Dilshod Dilmurodovichning hisoboti axborot uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

3. Kun tartibining keyingi masalasi "Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash" bo'yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova **dotsent** ilmiy unvoniga talabgorlar: 14.00.18 – Psixiatriya va narkologiya ixtisosligi bo'yicha psixiatriya va narkologiya kafedrasida dotsenti N.F.Yadgarova, 14.00.14 – Onkologiya ixtisosligi bo'yicha Onkologiya kafedrasida dotsenti D.M. Almuradova, 14.00.14 – Onkologiya ixtisosligi bo'yicha Onkologiya kafedrasida dotsenti N.I. Tursunova nomzodlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma'lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a'zolarini tanishtirdi. So'ng saylov o'tkazildi (saylov hay'ati a'zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4. Kun tartibining keyingi masalasi "Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash" bo'yicha O'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i F.X. Azizova va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi (2-va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga qo'yildi.

5. Turli masalalar bo'yicha O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.To'raqulov so'zga chiqdilar.

5.1. Professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejasida belgilangan ilmiy, o'quv va o'quv-uslubiy ishlarining bajarilishi 2024-yil sentyabr-dekabr oylari bo'yicha monitoringi o'tkazilsin va Akademiya Ilmiy kengashi yig'ilishlarida ma'lumot berilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.Turaqulov, Murojaatlar bilan ishlash nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i D.D.Achilov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024-yil sentyabr-dekabr oylari davomida.

5.2. Yangi 2024/2025 o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish maqsadida **kafedralar tomonidan quyidagi vazifalar bajarilishi ta'minlansin va keyingi Ilmiy kengashgacha (sentabr oyiga qadar) hisobot kiritilsin:**

- o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha barcha fanlar kesimida me'yoriy hujjatlar (malaka talablari, o'quv dasturlari, o'quv rejalari, sillabuslar) ishlab chiqilsin;

- fanlar kesimida zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanish holati tahlil qilinsin, chop etilishi va xarid qilinishi lozim bo'lgan o'quv adabiyotlar (jumladan, ingliz tilida) ro'yxati shakllantirilsin;

- o'quv dasturlariga mos ravishda o'quv-uslubiy materiallar (o'quv-uslubiy majmua, o'quv-uslubiy qo'llanma, tarqatma va ko'rgazmali materiallar)ni sifatli tayyorlanishi ta'minlansin;

- maruza matnlari va videoroliklarning tayyorlanishi va yangilanishi hamda kafedralar saytiga joylashtirilishi ta'minlansin;
- laboratoriya mashg'ulotlari, amaliy ko'nikmalarni egallash bo'yicha zarur asbob-uskuna, jihoz va reaktivlar ro'yxati shakllantirilsin;
- ingliz tili va xorijiy guruhlar uchun me'yoriy hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallarni ingliz tiliga tarjima qilinishi ta'minlansin;
- Akademiyaga qarashli talabalar turar joylariga kafedra mudirlari va professor-o'qituvchilarning tashriflari yanada kuchaytirilsin;
- ichki turizmni rivojlantirish maqsadida professor-o'qituvchilar va talabalarni tarixiy shaharlar va muqaddas qadamjolariga turistik sayohatlari hamda turli ma'daniy obyektlarga tashriflari tashkil etilsin;
- professor-o'qituvchilarning ma'naviyat soatlarini bajarishlarida faol ishtirok etishlari ta'minlansin;
- yangi o'quv yilida kafedrada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shtatlarga ehtiyojlar shakllantirilsin;

Barcha kafedra mudirlariga raqamlashtirish ishlari bo'yicha:

- **HEMIS** tizimiga kafedra xodimlari haqidagi ma'lumotlar to'liq kiritilsin;
- **Moodle** platformasidagi kafedraning ta'lim resurslari to'liq kiritilsin va yangilansin;
- **Kafedra saytlari** 3 tildagi ma'lumotlari yangilansin;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining topshirig'iga binoan Akademiya professor-o'qituvchilari quyidagilarda o'z profillarini muntazam ravishda yangilab borishlari ta'minlansin: ORCID, ResearchGate, Publons, Mendeley, Academia.edu va h.

5.3. 2024/2025 o'quv yili uchun Akademiyaning bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining 2-, 3-, 4-, 5-, 6-kurslarining ishchi o'quv rejalari, bakalavriatning barcha ta'lim yo'nalishlarining 2-, 3-, 4-, 5- kurslari uchun Sillabuslari, 510100 – Davolash ishi, 5111000 – Professional ta'lim 5-6-kurslari va 5510300 – Tibbiy profilaktika ishi ta'lim yo'nalishlarining 5-kurslari uchun fanning ishchi o'quv dasturlari tasdiqdan o'tkasilsin va o'quv jarayoniga tatbiq etilsin.

Xalqaro bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining 2-, 3-, 4-, 5-, 6- kurslarining ishchi o'quv rejalari hamda Kazan, Gomel ta'lim yo'nalishlarining 1-2, 6-kurslari uchun Sillabuslari, ishchi o'quv dasturlari tasdiqdan o'tkasilsin va o'quv jarayoniga tatbiq etilsin.

5.4. 2024/2025 o'quv yili uchun barcha magistratura ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari, ishchi o'quv rejalari, fan bo'yicha modul dasturlari hamda magistratura mutaxassisligi fanlar katalogi tasdiqlansin va o'quv jarayoniga tatbiq etilsin.

5.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 606-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim bo'yicha qabul parametrlari oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik salohiyati va moddiy-texnik bazasi hisobga olingan holda oliy ta'lim muassasasi kengashi tomonidan belgilanishi ko'rsatib qo'yilgan. Shu munosabat bilan Toshkent tibbiyot akademiyasi kengashi qaroriga muvofiq Toshkent

tibbiyot akademiyasi moddiy-texnik bazasini hisobga olgan holda ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim uchun qabul kvotalari ajratilmasligi tasdiqlansin.

5.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2022-yil 28-yanvardagi "2022/2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmonlarida sohaga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, O'zbekiston OTMLarida xorijiy talabalar ulushini oshirish, xalqaro miqyosda tanilish va raqobatbardoshligini ta'minlash to'g'risidagi topshiriqlariga binoan, yangi 2024/2025-o'quv yilidan boshlab ingliz tilida muloqot qiluvchi xorijiy fuqarolar uchun qabul kvotasi 400 nafar etib belgilansin. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-81-son Farmoni ijrosi yuzasidan o'qishga qabul qilish muddati 2024-yil 5-iyundan 20-iyul kuniga hamda MDH mamlakatlari fuqarolari uchun (rus va o'zbek tillarida muloqot qiluvchi xorijiy fuqarolar uchun) 1-avgust kuniga qadar etib belgilansin.

5.7. Bakalavriat va magistratura talabalarining mustaqil ta'limini sifatli tashkil etish maqsadida yangi ishlab chiqilgan "Toshkent tibbiyot akademiyasida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish tartibi" tasdiqlansin.

5.8. Akademiyasi tomonidan "Qon aylanish kasalliklari (Uyqu va yonbosh arteriyalari aterokalsinozi) klinik-biokimyoviy va patogenetik muammolari, nevrologik, kognitiv, suyak bo'g'imlari asoratlarini davolash" mavzusidagi FM-20230414707-raqamli fundamental grant loyihasini (loyiha rahbari- **Asadullayev Maksud Maxmudovich**) ijrosini ta'minlash maqsadida zaruriyat tufayli iqtisod qilingan mablag'lar hisobiga tadqiqotda ishtirok etayotgan bemorlarda bosh miya insultini rivojlantirish jarayonida yurak-koronar tomirlardagi o'zgarishlarni bog'liqligini baholash maqsadida sutkalik Xolter-EKG monitorlash apparati (ruscha, Sistema Xolter monitorirovaniya EKG) laboratoriya jihozlaridan 2 dona va sutkalik qon bosimni nazorat qilish maqsadida SMAD – apparatidan 2 dona xarid qilishga tavsiya berilsin.

5.9. Kardiologiya yo'nalishi 3-kurs magistr talabasi **Nabibullaeva Shodiyaxon Zayliddin qizini** Yevropa kardiologlar jamiyatining 2024-yildagi kongressiga taklif etilganligi munosabati bilan London shahriga ushbu kongressda poster ma'ruza bilan qatnashish uchun 2024-yil 28-avgustdan 2024-yil 6-sentyabrgacha borib kelishiga tavsiya etilsin.

5.10. 2024-yil 28-martdagi navbatdagi Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig'ilishida (9-sonli BAYONning 5.5-bandi) 2023-o'quv yili uchun shartli ravishda tavsiya etilgan talabgor doktorantlar joriy yil 26-iyunga (iyun oyidagi navbatdagi 12-sonli Ilmiy Kengash) qadar til bilish sertifikatini (B2) taqdim qilish vazifasi yuklatilgan, aks holda, Innovatsion rivojlanish agentligi ko'rsatmalariga muvofiq doktorantlar safidan chetlatish masalasi kiritilgan edi. Shu munosabat bilan, nomlari keltirilgan, til bilish sertifikatini (B2) taqdim qilmagan 6 nafari (G.T.Djurayeva (DSc), 14.00.01-Akusherlik va ginekologiya; N.F.Yadgarova, 14.00.18-Psixiatriya va narkologiya; S.T.Jumamurodov, 03.00.04-Mikrobiologiya va virusologiya; N.O.Tuxtamisheva, 14.00.01-Akusherlik va ginekologiya; G.P.Raximova, 14.00.05-Ichki

kasalliklar; S.Ya.Kamalova, 14.00.27-Xirurgiya) doktorantlar safidan chetlatilsin, stipendiya to'lanishi to'xtalishi va o'rnatilgan tartibga muvofiq (O'zR VM 304-sonli qarori talablariga muvofiq oliy ta'limdan keyingi ta'limning shakllaridan biri mustaqil izlanuvchilikka Yagona elektron tizim — phd.mininnovation.uz orqali hujjatlarni onlayn qabuli inobatga olinsin) mustaqil izlanuvchilik maktabiga qabul qilinish chorasi ko'rilsin.

Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor S.I.Dustmurodov, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, taalluqli kafedra mudirlari va ilmiy rahbarlar.

Muddat: 2024-yil iyul oyi.

Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o'z ishini yakunladi.

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Ijrochi: G.Ismailova
ID: 549712
Sana: 01.07.2024